

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
<b>G.S.Sidiqova</b>	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası .....	118
<b>X.X.Xaydaraliyev</b>	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
<b>R.A.Hamroqulov</b>	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....	128
<b>E.I.Allomov</b>	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....	134
<b>T.A.Eshimov</b>	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....	147
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
<b>Sh.V.Djalalov</b>	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
<b>X.M.Sotvaldiyeva</b>	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....	159
<b>S.I.Quziyev</b>	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....	162
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Methodology and outcomes of english language teaching .....	168
<b>M.Axmedova</b>	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
<b>G.Astonova</b>	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
<b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....	179
<b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>	
Nutq o'stirishning metodik usullari .....	183
<b>M.S.Ro'ziboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	188
<b>N.N.Nabiyeva</b>	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....	193
<b>D.I.Asqarova</b>	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....	197
<b>D.T.Yuldasheva</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....	202
<b>Y.A.Mirzaboyev</b>	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	206
<b>R.Sh.Sharofutdinova</b>	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....	210
<b>Sh.T.Mavlonova</b>	
Inkluyuziv ta'limgan o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik,	



УО'К: 373.3

## МАКТАБ О'QUVCHILARI HARAKAT FAOLIYATINING YOSHGA XOS ME'YORLARI

## ВОЗРАСТНЫЕ НОРМЫ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ

## AGE NORMS OF PHYSICAL ACTIVITY OF SCHOOLCHILDREN

Allomov Erkin Ibragimovich 

Farg'ona davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi kafedrasiga katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maktab o'quvchilarining harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlariiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot, turli yoshdagagi bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishi va harakat qobiliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda harakat faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (tezlik, kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, muvozanat va koordinatsiya) turli yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinadi va ularning yoshga bog'liq o'zgarishlari aniqlanadi. Olingan natijalar maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarini, shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakillantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot maktab o'quvchilarining jismoniy sog'ligini mustahkamlash va ularning harakat faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

**Аннотация**

Данное исследование, посвященное возрастным нормам двигательной активности школьников, направлено на изучение особенностей физического развития и двигательных способностей детей и подростков разных возрастов. В исследовании анализируются основные показатели двигательной активности (скорость, сила, выносливость, гибкость, равновесие и координация) по различным возрастным группам, и выявляются их возрастные изменения. Полученные результаты служат основой для разработки практических рекомендаций по проведению уроков физической культуры в школах, а также по формированию здорового образа жизни. Исследование направлено на укрепление физического здоровья школьников и совершенствование их двигательной активности.

**Abstract**

This research dedicated to the age-specific norms of physical activity of school students focuses on studying the unique characteristics of physical development and motor skills of children and adolescents of different ages. The main indicators of physical activity (speed, strength, endurance, flexibility, balance, and coordination) are analyzed across various age groups, and their age-related changes are identified. The results obtained serve as a basis for developing practical recommendations for physical education classes for school students, as well as for promoting a healthy lifestyle. The research aims to strengthen the physical health of school students and improve their motor activity.

**Kalit so'zlar:** Harakat faoliyati, jismoniy mashq, pedagogik jarayon, harakat malakasi, jismoniy harakat sifatları, sog'lom turmush tarzi, gipokeniziya, gipodinamiyaga emotsiyonal kechinimalar, muskullar zafligi, salomatlik, harakatlanish me'yorlari, eksperiment, funksional holat, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** Двигательная активность, физические упражнения, педагогический процесс, двигательные навыки, качества физического движения, здоровый образ жизни, гипокинезия, гиподинамия, эмоциональные переживания, слабость мышц, здоровье, нормы активности, эксперимент, функциональное состояние, информационные технологии.

**Key words:** Physical activity, physical exercise, pedagogical process, motor skills, physical activity qualities, healthy lifestyle, hypokinesia, hypodynamia, emotional experiences, muscle weakness, health, movement norms, experiment, functional state, information technologies.

**KIRISH**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi. Unda, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish aholi salomatligini taminlashda muhim omildir" deb baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqсадидаги, "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish" ko'rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Ayniqsa prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 1-apreldagi ommaviy

**PEDAGOGIKA**

sportni rivojlantirishga bag'ishlangan mahsus yig'ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 6 milionga yetkazish, 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston xalqiga, Oliy majlis deputatlariga, Senatorlarga murojatida: "Turli yoshdagi kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q"ligi to'g'risida alohida ko'rsatmalar berildi. Mamlakatni 2023-yilgi taraqqiyot strategiyasi dasturida, jismoniy tarbiya va sportga nixoyatda keng o'rinn berildi.

Jismoniy madaniyat ta'limi amaliyotida «harakat faoliyati ta'limi», «harakatga o'rgatish», «harakat malakasi», «harakat ko'nikmasi», «nazariy bilim», «qila bilish - uddalash», «tarbiyalash», «rivojlantirish» va hokazodek atamalardan foydalilanadi hamda yuqorida qayd qilinganidek, ijodiy mehnat va harbiy amaliyotga tayyorlashdek yagona umumiy maqsad xamda *bilim berish, tarbiyalash* va *sog'lomlashtirishdek umumiyy vazifalar* mamlakatimiz jismoniy tarbiya tiziminining xar bir zvenosida muvofiq holatda xal qilinadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Faol xarakatlanish, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning organizmga ta'siriga oid o'quvchi diqqatiga sazavor tavsiyalar, ko'rsatmalar faqat I.N.Sarkizov-Sirazini, G.I.Kukushkin, L.P.Matveyev va A.D.Novikov, B.A.Ashmarin, M.S.Tartakovskiy va boshqalarning darsliklari va qo'llanmalarida uchratdik.

Respublikamz olimlari M.T.Tursunov, F.Nasriddinov, D.J.Sharipova, T.S.Uzmanxodjayev va boshqalar xarakat faolligining ayrim organlarimizga ta'siri, sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatining ayrim elementlari – eng sodda xarakatlar: yurish, yugurish, sayohatlar, oddiy spot va harakatli o'yinlardan faol harakatlanishda foydalananining ijobiy tomonlarini ochishga urinishlar qilishgan .

Izlanishlarimiz davomidagi kuzatishlarimizning ayrim natijalari bizni lol qoldirdi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning organizmga ijobiy ta'siri haqida 9 yil umumiy ta'lim maktabida, yana 3 yil kollejlpr, akademik, lisey va kollejlarda, qolaversa, armiyada o'qitilsa, uqdirilsa ham suhbatlar, uchrashuvlar, intervylarda ko'pchilik yoshlarimiz iloji boricha kam harakatlanishni "afzal" ko'rishlarini, go'yoki ortiqcha harakatlar, passiv hayot tarzi organizmning funksional zahirasini uzoq umrining yashash muddati davomida "tejash" imkonini berishini dalillar bilan isbotlashga urinmoqdalar.

Ularning ixtiyoriy faol harakatlnishning foydasiga oid hozirgi zamon bilimlari o'ta past, faol yashash organizmda yuzaga keltiradiganendrofinlardan , ulami shug'ullanuvchi organizmda yuzaga keltiradigan funksional uzgarishlar haqidagi tushunchalari aytarli darajada primitiv.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

«*Harakat faoliyatini (jismoniy mashqni) o'zlashtirish*» nisbatan qisqa pedagogik vazifadir. «*Harakat faoliyatini o'zlashtirish(o'rganish)*» - yoki "jismoniy mashqni o'qitish" atamasi aniq harakat faoliyatini o'rgatishda va uning nazariy bilimlari ham berilganda qo'llaniladi.

*Harakat faoliyatini o'qitishda harakat malakasi shakllanadi, ko'nikma vujudga keladi, bir vaqtning o'zida muvofiq jismoniy harakat sifatlari - kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, muskullar egiluvchanligi va bo'g'inlar harakat chanligi rivojlanadi.* Shu sababli pedagogik jarayon malakani shakllantirishga yoki harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Sog'lom odamni bir necha hafta harakat qilishga ruxsat bermay yashashga majbur qilingan (M.M.Krugliy, S.B.Lejneva). Ko'p o'tmay eksperiment o'tkazilayotgan shaxslaming vaznini kamayishi – tanasida "ozish", mushaklarini so'liy boshlashi, nafas (o'pka) va yurak ishini izdan chiqishi kuzatilgan. Lekin ular o'midan turib yurishga – harakatlanishga ruxsat etilgandan so'ng qisqa vaqt ichida tajriba ishtirokchilari organizminining funksional holatini tiklanishi sodir bo'lganligi kuzatilgan<sup>6</sup>(27).

Demak maqsadli faol harakatlanish zaruriyat. Harakatlanishdan foya olish uchun ulami bajarish me'yorini belgilashni bilish lozim. Shundagina jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishning foydali ekanligiga ko'p o'tmay ishonch tez hosil bo'ladi

Axborot texnologiyalari, internet tizimi, turli xil tele o'yinlarga ajratilgan vaqtini ma'yordan ortiqligi ham yetakchi sabablardandir.

Taxsil yillardagi nosog'lom turmush tarzi, yuksak emosional kechinmalar, "sog'lomman", "har neki qilsam kuchim yetadi" degan va boshqa qator tushunchalar sus harkatlanish bilan

<sup>6</sup>Krugliy M.M., Lejneva S.B., "Yana Appolon haqida". -T.: "Meditina", 1985, 5-sahifadan.

yashash (gipokeniziya), gipodinamiyagaga(kam harakatlanish)dek 20 asrdan meros cassallikga sabab bo'lmoqda.

Harakat sustligi-asrimizning noxush nuqsoniga aylanib bo'ldi. Muskullar zaifligi inson salomatligi uchun havo yoki vitaminlar yetishmasligi kabi xavfligi ayniqsa yoshlar ongiga singdirilishi lozim.

O'quvchilar harakatlari sust yoki faol bo'lishi bilan farqlanadi. Kattalar yoshlarni "dadil", "chaqqon" harakatlanishiga,"shaxdli" – "shijoatli" bo'lishga da'vat Insonning qiladilar. Mamlakatimiz aholisini turli tabaqlari, ayniqsa, ulaming ko'pchiligini tashkil qiluvchi o'quvchi, talaba yoshlarni harakatlanishi uchun kunlik harakatlari me'yoriy normalari standartini yaratish va undan turmush tarzi tarkibida foydalanishga urinishlar bo'lgan (V.D.Chemyavskiy, Q.Q.Jabborov va boshqalar).

Bunday standartlarga rioya qilishni ahamiyati nimada ekanligini o'rgandik. Turmush tarzi tarkibida ortiqcha harakatlanish – o'tgan kun, hafta davomida yoki oylik yillik harakatlarning me'yorsizligining oqibati orqali organizmimiz organlari va tuzilmalari o'zining imkoniyatiga nisbatan ortiqcha, zo'r berib (kuchanib) ishlashiga to'g'ri keladi yoki uning aksi, shu kun, hafta, oy va h.k uchun sarflash lozim bo'lgan harakat energiyasini sarflash darajasida jismoniy ish bajarmaydi, harakatlanmaydi, quvvatni oz sarflaydi,oqibati "gipokineziya"- bu hozirgi kunda kasallik sanaladi.

Harakat faoliyati - bu organizmning biologik ehtiyoji bo'lib, uni qondirish bolalarning sog'lig'iga, ularning jismoniy va umumiy rivojlanishiga bog'liq. Motor faoliyati nafaqat bolalarning individual xususiyatlaridan, balki bolalar muassasasida va uyda o'matiladigan vosita rejimining hosilasidir. Maktab yoshda, bolalarning jadal o'sishi va rivojlanishi davrida, harakat qobiliyatlarini o'z vaqtida rivojlantirishga, eng muhim organlar va tizimlarning to'g'ri shakllanishiga yordam beradigan vosita faoliyatining optimal rejimini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Maktab ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining maqsadi bolalarning jismoniy salomatligi uchun poydevor yaratishdan iborat bo'lib, u quyidagi vazifalarni qo'yish orqali amalga oshiriladi:

1. Bolalarda jismoniy mashqlar va o'yinlarga, qattiqlashuv jarayonlariga va tabiatning shifobaxsh kuchlarining ta'siriga, shaxsiy gigiena qoidalalariga, kun tartibiga rioya qilishga hissiy ijobiy munosabatni rivojlantirish.

2. Umumiy rivojlanish xarakteridagi tabiiy harakatlar matabining boshlang'ich ko'nikmalarini, musiqiy va ritmik savodxonlik asoslarini, to'g'ri turishni, kosmosda harakat qilish va muvozanatni saqlash, jamoaviy harakatlarda (o'yinlar, raqslar va bayramlar) ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish), xulq-atvor, mustaqillik, tashkilotchilik va intizom madaniyatini ko'rsatish.

3. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish va darslar uchun jihozlarga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Vazifalarni hal qilishda quyidagi qoidalarga tayanish kerak.

Sizning ishingizda siz bolaning dunyoni harakatlar orqali o'rganishni boshlaganidan kelib chiqishingiz kerak, ya'ni. hayotning birinchi yillarida jismoniy rivojlanish aqliy rivojlanishdan oldinda. Bolaning motorli faoliyati, paradoksal ravishda, ikkita funktsiyaga ta'sir qiladi: jismoniy va aqliy rivojlanish.

Agar birinchi funktsiya tabiiy bo'lsa, ikkinchisi, bir qarashda, bema'nidek tuyuladi va shunga qaramay, bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, agar bola yaxshi harakat qilsa, jismonan rivojlangan bo'lsa, demak u o'z tengdoshlaridan aqlan oldinda. Shuning uchun biz dasturning asosiy qismlarini o'quv materialini jismoniy mashqlar jarayonida yoki turli xil motorli faoliyat shakllarida o'zlashtirish kerak deb taxmin qildik.

Harakat faoliyati bolaning qiziqishiga asoslanishi kerak, bunga ijobiy his-tuyg'ularni chaqirish orqali erishish mumkin.

An'anaviy dasturda ko'zda tutilgan "tejamkorlik" rejimlaridan voz kechish orqali bolaning motor faolligini tashkil qilish tavsiya etiladi. Bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yukni dozalash.

Barcha o'quv materiallari amaliy va nazariy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan uchta bo'lim shaklida taqdim etilishi mumkin.

Yengil atletika. Chidamlilik, tezlik, tezlik-kuch sifatlari, aniqlik, ko'z rivojlanadi. Asosiy mashqlar: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish.

Gimnastika. Gimnastika yordamida kuch, egiluvchanlik, epchillik, fazoviy orientatsiya, muvozanatni rivojlantirish masalalari hal qilinadi. Shu bilan birga, harakatlarning go'zalligi, texnikligi va aniqligi elementlari ishlab chiqilgan.

**PEDAGOGIKA**

Asosiy mashqlar toqqa chiqish, akrobatika, apparatlar (gimnastika halqalari, bom, shved devori).

Sport va ochiq o'yinlar. Mashqlar va o'yinlar epchillikni, aqliy xususiyatlarni, oddiy va murakkab vosita reaktsiyalarini rivojlanritirishga qaratilgan. Asosiy mashqlar: bir va ikkita to'p bilan mashqlar (jonglyorlik), ochiq o'yinlar, badminton, basketbol, stol tennis.

Biz ushbu pedagogik tajribamizda o'quvchilarning yoshini, jinsini, garmonik imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni chidamlilik, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, egiluvchaqonlik kabi jismoniy sifatlarni qay darajada rivojlanganligini tekshirib olishimiz zarur. O'quvchilarning jismoniy tarbiyasini doimiy monitoring qilish natijasida jismoniy tarbiya dasturi o'quv materiallar bo'yicha mavjud davlat ta'lif standartlariga muvofiq o'quvchilarning harakat tayyorgarligiga qo'yiladigan yagona me'yoriy talab yo'q.

Pedagogik nazoratni amalga oshirishda muktab yoshdag'i bolalarda asosiy harakatlar rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlarini hisobga olish kerak. Yurish. 3-4 yoshda bolalar hali ham chaqaloq yurishining ko'plab xususiyatlarini saqlab qolishadi: notejis sur'at va harakatlarning etarli darajada ravshanligi, bu yo'naliishga roya qilishda qiyinchiliklar mavjud. Yordamchi harakatlar sifatida lateral tebranishlar, muvozanatni saqlash uchun qo'llarni yoyish, oyoqlar bilan aralashtirish, yurish paytida yarim egilgan oyoqlar kabi yordamchi harakatlar qoladi.

do'stona harakati allaqachon 25% hollarda qayd etilgan, 4 yoshga kelib u bolalarning yarmidan ko'pida kuzatiladi. Oyoqlarning o'mnatilishi parallel bo'lib qoladi.

5-6 yoshda harakatlarni muvofiqlashtirish yaxshilanadi, qo'l va oyoqlarning do'stona harakati bolalarning 70% dan ortig'ida qayd etiladi, qadam uzunligi oshadi, u bir xil bo'ladi. Ammo harakat tezligida hali ham notejislik mavjud 7 yoshga kelib, bolalarning deyarli 100% qo'l va oyoqlarning do'stona harakatiga ega bo'lib, qadam uzunligi oshadi va yurish tezligi sekinlashadi va masofani bosib o'tish tezligi oshadi. Ushbu yoshdag'i bolalarning ko'pchiligidagi to'g'ri yurish holati qayd etilishi mumkin.

Yugurish. Yugurish paytida qo'l va oyoqlarning harakatlarini yaxshi muvofiqlashtirish bolalarda yurishga qaraganda tezroq rivojlanadi, shuning uchun 3 yoshli bolalarda bu 30% hollarda, 4 yoshli bolalarda esa 70-75% da kuzatiladi. 3-4 yoshda yugurish paytida tuproqdan ajralish ("uchish") alohida hollarda kuzatiladi va faqat 4-5 yoshda, ayniqsa mashg'ulot bilan, tuproqdan ko'rindigan ajralish kuzatiladi. Ko'z 20% hollarda uchraydi. 7 yoshga kelib, bolalarning 70% dan ortig'i yugurishda "uchish" ga ega; Ko'p narsa mashg'ulotlar bilan bog'liq. Xuddi shu yoshga kelib, bolalarning 90% dan ortig'i yugurish paytida qo'l va oyoqlarning harakatlarini yaxshi muvofiqlashtiradi, yugurish bir xil bo'ladi.

Asta-sekin, yosh o'tishi bilan qadam uzunligi oshadi va tezlik kamroq bo'ladi va yugurishning qattiqligi ortadi.

Sakrash. 3 yoshga kelib, ko'pchilik bolalar 15 sm balandlikdan sakrab, joyida sakrashlari mumkin, ammo oyoqlari erdan ozgina chiqib ketadi.

3-4 yoshli bolalar erga yotgan tayoq yoki shnur orqali ikki oyog'idagi joydan uzunlikka sakrashni nisbatan osonlik bilan engishadi. Yoshi bilan sakrash uzunligi tez oshadi. Deyarli 50% bolalar yarim egilgan oyoqlarda yaxshi surish va qo'nish qobiliyatiga ega, va erdan itarishning qolgan qismi zaif, ular butun oyoqqa, tekis oyoqlarga tushadilar. 3-4 yoshli bolalarda, qoida tariqasida, sakrashda qo'llarning tebranishi yo'q. Ular uchun qiyinchilik - bu joydan balandlikka sakrash. 4 yoshga kelib, bolalarning kichik bir qismi bir oyoqqa sakrashi mumkin.

5 yoshida bolalar allaqachon bir oyoqda sakrashni va oldinga siljishni yaxshi bilishadi. Bir joydan sakrash uzunligi ortadi, bolalar yugurishdan uzunlikka sakrashni o'zlashtiradilar. Bu yoshda, bolalar sakrashda hali ham qo'llarini etarli darajada tebranishmaydi, zaif suriladi, ba'zan butun oyog'iga va tekis oyoqlariga tushadi. Eng katta qiyinchilik - yugurish boshlanishidan balandlikka sakrash, bu sakrash bilan to'g'ri qo'nish kamroq uchraydi.

6-7 yoshda bolalar sakrash, joyida sakrash va ikki va bir oyoqda oldinga siljish, 50 sm chuqurlikka sakrashni erkin va yaxshi bajara oladilar. Bir joydan uzunlikka va yugurishdan, balandlikka sakrash bulardir. ular uchun juda qulay. Ular surish paytida qo'llarining to'lqinidan qanday qilib to'g'ri foydalanishni allaqachon bilishadi, 70% dan ortiq hollarda bolalar to'g'ri qo'nishadi (yarim egilgan oyoqlarda, osonlik bilan).

Yugurish. Yugurish paytida qo'l va oyoqlarning harakatlarini yaxshi muvofiqlashtirish bolalarda yurishga qaraganda tezroq rivojlanadi, shuning uchun 3 yoshli bolalarda bu 30%

hollarda, 4 yoshli bolalarda esa 70-75% da kuzatiladi. 3-4 yoshda yugurish paytida tuproqdan ajralish ("uchish") alohida hollarda kuzatiladi va faqat 4-5 yoshda, ayniqsa mashg'ulot bilan, tuproqdan ko'rinaradigan ajralish kuzatiladi. Ko'z 20% hollarda uchraydi. 7 yoshga kelib, bolalarning 70% dan ortig'i yugurishda "uchish" ga ega; Ko'p narsa mashg'ulotlar bilan bog'liq. Xuddi shu yoshga kelib, bolalarning 90% dan ortig'i yugurish paytida qo'l va oyoqlarning harakatlarini yaxshi muvofiqlashtiradi, yugurish bir xil bo'ladi.

6-7 yoshda bolalar sakrash, joyida sakrash va ikki va bir oyoqda oldinga siljish, 50 sm chuqurlikka sakrashni erkin va yaxshi bajara oladilar. Bir joydan uzunlikka va yugurishdan, balandlikka sakrash bulardir. ular uchun juda qulay. Ular surish paytida qo'llarining to'lqinidan qanday qilib to'g'ri foydalanishni allaqachon bilishadi, 70% dan ortiq hollarda bolalar to'g'ri qo'nishadi (yarim egilgan oyoqlarda, osonlik bilan).

### 1-jadval

#### Turli yoshdagagi maktab o'quvchilarining sutkalik harakat aktivligi

Yoshi	Ming qadam	Km	Sarflangan Vaqt, soat
8-10	15-20	7,5-10	3,0-3,5
11-14	20-25	12-17	3,6-4,8
15-17 o'g'il bolalar	18-23	18-23	4,8-5,6
15-17 qiz Bolalar	0-23	15-20	3,6-4,8

Masalan, sobiq ittifoq jismoniy madaniyat ilmiy-tadqiqot instituti olimlari turli yoshdagagi o'quvchilar harakat faoliigi me'yorini o'rganish bo'yicha olib borgan o'tgan asming 80 yillarinin oxiridagi tadqiqotlarda maktab yoshidagilarning haftalik harakat rejimining standartlarini tavsiya etganlar. Ular:

a)- maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun 21 soatdan 28 soatgacha;

b) maktab o'quvchilar uchun – 14-12 soatgacha;

v) hozirgi kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar (awal ular hunar texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari deb nomlangan)ning o'quvchilar 8-14 soat; g) talabalarga ishchilar va boshqa kasb egalariga 6-10 soatni harakatlanishning haftalik me'yoriy normasi deb belgilaganlar.

Qayd qilingan haftalik harakatlanish me'yorlari har kuni bajarish odati (stereotip)ga aylangan ertalabki gigiyenik gimnastika mashg'ulotlari, o'quvchilarni o'quv kuni tarkibidagi darsgacha gimnastika, akademik mashg'ulotlar – dars jadvali bo'yicha jismoniy tarbiya darsi, uyuştirilgan tanaffuslar, o'quv kunining ikkinchi yarimidagi darslarda o'tkaziladigan jismoniy madaniyat daqiqalari, sinfdan tashqari sog'lomlashtirish yoki maktab sport krujoklari, sport seksiyalari, oilada, mustaqil o'zi shug'ullanadigan mashg'ulotlar va boshqa harakatlanish bilan bog'liq tadbirlar (sayr,sayohat, ekskursiyalar va h.k.) orqali bajarilishi nazarda tutiladi.

### 2-jadval

#### Bolalar sutkalik harakatini aktivligini quyidagicha baholash qabul qilingan

#### O'quvchilarni sutkalik harakat aktivligi me'yorini baholash

Qadam	Baho
10 ming	Past
10-20 ming	O'rtacha
21-30 ming	Yuqori
31 ming va undan ortiq	Maksimal yuqori

Shunday qilib, 9-10 yoshdagagi bolalar eng kamida sutkasiga 7ming qadamdan kam yurmasliklari kerak.

Kunlik, haftalik harakat me'yorlari sifatida odatga aylangan harakatlarni bajarish individniy shug'ullanuvchining organizmini faol funksional xizmat ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan jismoniy tayyorligi darajasiga bog'liq.

O'quvchilar harakat aktivligi darajasini o'rganish maqsadida bir necha maktablarda o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha, o'quvchilar sutkaning 24 soatidan 9-10 soatini uyquga, 4-7 soatini maktab partasida o'tirish (o'qish uchun), 2-3 soatini uyda dars tayyorlash, 2-2,5 soatini uydagi ishlarga sarflab ekanlar. Qolgan taxminan 4-5 soat vaqtini televizor, kompyuter, bekorchilikga sarflab vaqtini o'zlarining xohishlariga ko'ra o'tkazishlari ma'lum bo'ldi. Bunday "bebaho boylikni" – ya'ni, vaqtini o'zi xohlagan ish bilan

## PEDACOGIKA

shug'ullanishga sarflash va undan unumli foydalanish "harakat faolligi", "harakatlari me'yori", o'zining organizmi uchun "optimal harakatlanishning hajmi, miqdori"ni tanlay olish degan STT jismoniy madaniyati bilimlari va uning darajasi bilan bog'liq va ularni foydasini tushunishga borib taqaladi.

Afsuski, asrimizning dominant xususiyatlaridan eng ko'zga ko'rindigani o'quvchi-yoshlarning kundalik turmush tarzida harakatlanishni me'yoriga e'tiborsizligi yoki ayrim holatlarda harakat faolligini chegaralanib qolishi, o'ynagani, shug'ullanish uchun sharoitni yaxshi emasligidadir.

Ular 100 yil avval mehnat jarayonida sarflanadigan energiyani (akademik I.A.Berg) 96% mushaklar quvvati, kuchi hisobiga bajarilganligini bilmaydilar. Hozirgi kunga kelib esa 99% insонning mehnat faoliyatini mexanizmlar quvvatini hisobiga bajarilmoqda.

Gipodinamiya, gipokineziya, hajmi chegaralangan jismoniy yuklamalar, organizmning funksional holatini intensiv holda o'chishiga sabab bo'lmoqda, agar, unga ruhiy passivlik ham qo'shilsa bormi, bu jarayon yanada tezlashayotganligini ilmiy-tadqiqotlar isbotlab bo'ldi.

Tadqiqotlarning natijalari harakati cheklangan yoki kam harakatlanishni yoqtiradiganlarning mushaklari faol harakatlanib, yashovchilarning mushaklariga qaraganda ancha tez quriy boshlashini, chidamlilagini esa keskin pasayishini, o'pka va yurak faoliyati ishida nuqsonlarni yuzaga kelayotganligi, organizmining kuch-quvvati, mushaklari tarangligi (tonusi)ning pasayishi, lanjlik, lohaslik va turli xildagi kasalliklarning alomatlari paydo bo'llishi, yuragining sanchishi va boshqa hurujlarni o'ta tez boshlanayotganligini ko'rsatmoqda. Xalqning "ko'p yurgan uzoq umr ko'radi" degan maqoli bejiz aytilmagan.

Amerikalik olim D.Volfning tadqiqotlari kam harakatlanish bilan hayot kechiruvchilar, ayniqsa, aqliy mehnat kasbi sohiblari jismoniy mehnat qiluvchilar yoki sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyatiga egalariga nisbatan 10 marta ko'proq kasallikka yo'liqayotganliklarini aniqlagan. Shuningdek "yurak faoliyatingizning zahirasi" – uzoq sog'lom yashash chorasi mushaklarni mashqlantirishdadir. Rivojlangan mushak qonni nasos tarzida so'rib olishdek funksiyasiga ega bo'lib, yurakni organlarga qon haydash va uni so'rib olish faoliyatini osonlashtiradi.

*Yo'naltirilan tizimli mashg'ulotlar organizmning ish qobiliyatini qayta tez tiklanishiga yordam beradi, yurak mushaklarining oziqlanishini yaxshilaydi. Qayd qilinganlarning asosiy vositasi sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlari bo'llishi hozirgi kunda ham ilmiy-nazariy va amalda lomlashtirish jismoniy madaniyati isbotlangan.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kunlik, haftalik, oylik harakat faolligini me'yorini aniqlash YUQCh sini hisoblash orqali aniqlanadi. Biz tajriba guruhimizga quyidagi sinamani tavsiya qildik:

Jismoniy yuklamalar YUQCh si orqali – 10 sek.dagi zarbani sanab 6 ga ko'paytiriladi. Masalan, 10 sek.da 15 marta yuragi qisqarayotgan bo'lsa,  $15 \times 6 =$  minutiga = 90 marta deb hisoblanadi. Har bir urinish mashqlaridan so'ng YUQCh kamida 2 martaga ortsiz ciz mashqning dozasini to'g'ri tanlagansiz.

Maksimal puls o'quvchilarning EGG mashg'ulotida YUQCh zarbi 150-160 tadan ortmasligi, maktabgacha yoshdagilarda 5-10 tadan ortiq kam urishi lozim. Biz o'tkazgan va boshqa tadqiqotlarning natijalari asoslanib gigiyenik gimnastika davomida YUQCh minutiga taxminan 140 ( $\pm 10$ ) atrofida bo'lsa, mashg'ulotdan lozim bo'lgan effektni kutish mumkinligi isbotlangan.

Mashqlar kompleksini bajarish to'xtatilgandan so'ng (bir minut o'tib) YUQCh zarbi 100-120 ta cha pasayishi, jismoniy tayyorgarligingizni holatiga ko'ra taxminan 8-15 minutdan so'ng esa YUQCh si o'zining normal holatiga qaytishi norma hisoblanadi.

Har kunlik, tizimli ertalabki gigiyenik gimnastika mashg'ulotlari yilning har qanday faslida doimiy bajarilishi odatga aylangan harakat faolligi minimumi bo'llishi maqsadga muvofiqdir. 1-rasmida tajriba guruhiba tavsiya qilgan mashqlar kompleksini e'iboringizga havola qildik.

Hozirgi kunga kelib ertalabki gigiyenik gimnastika mashg'ulotlari mahalla, guzarlar, makkab, bolalar sport makkabslari sport bazalari, sport inshootlari, suv havzalari, anhorlar, soy bo'yları, havosi toza park zonalarida maxsus qurilgan "sog'lomlashtirish yolkalari"da "sog'lomlashtirish trenirovkaları" tarzida ommaviy tashkillanmoqda. Biz faqat EGG mashg'ulotidagi me'yorga to'xtaldik xolos.

**XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, jismoniy yuklama me'yoriga moslashuv sodir bo'llishi, mashqlanishni odatga aylanib qolishi muhim. Agar ma'lum sabablarga ko'ra bajarilishi odatga aylanib

qolgan harakatlar to'xtatilsa yoki shu kun uchun jismoniy yuklama me'yori odatlangan hajmdagidan past yoki ortiq bo'lsa, organizm bu holatga o'zining reaksiyasi bilan javob qaytaradi. Shuning uchun o'quvchilik yillardanoq o'z organizmini "eshitishni" o'rganish, kayfiyatni ixtiyriy faol xarakatlar orqali boshqarish malakasini berish jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida yo'lga qo'yilishi shart.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bugun, 2024 yil 28 avgust kuni XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlari bilan uchrashdi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-5924-son. Toshkent sh., 2020 yil 24 yanvar. Lex.uz.
3. Abdullayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. OO'Yu larining jismoniy madaniyat bakalavrleri va magistrantlari uchun darslik. (3-to'ldirilgan nashri), "Poligraf Super Servis" Farg'on'a 475 b.
4. Umarov D.X. «Teoriya i metodika fizicheskoy kultury, sporta». Uchebnoye posobiye. T-2021. 239 c.
5. Goncharova O.V. «Yosh sportchilarining jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish». - T.: 2005 y.
6. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati. Farg'on-a- 2009 y.
7. Sh.Xankeldiyev, A. Abdullayev, N. Azizov, B.Haydarov, A.Xasanov Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mashg'ulotlari. Farg'on-a – 2011.
8. Yevseyev Yu.I.Fizicheskaya kultura,uch. pos., izd-ye 5-ye Rostov -na Donu, «Feniks» 2008 240 s.
9. Xankeldiyev Sh.X, Abdullayev A. Va boshqalar. "Umumiylar maktabi o'quvchilarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati", o'quv qo'llanma "Farg'on-a" nashryoti, 2011 y.- 332 b.